



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

**ONLINE
CONFERENCE**

**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS
IN SCIENCE 2024 "**
**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE**



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Part 34

Issue 1

RUSSIA 2024

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024: a collection scientific works of the International scientific conference (27th October, 2024) – Chelyabinsk, Russia : "CESS", 2024. Part 34, Issue 1 – 78 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024**". Which took place in Chelyabinsk on October 27th, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024

© Authors, 2024



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

TABLE OF CONTENTS

<i>NAVIGATING THE BEVERAGE MARKET: E-COMMERCE STRATEGIES</i> Rasul Ravshan Rixsiboyev Khasan Abdujabbor Muhammadjonov Mahmud Akbar Mahmudov Sherali Nurali Abdukarimov Abrorbek Ilhomjon Ismoiljonov	6
<i>THE IMPACT OF BACTERIAL INFECTIONS ON THE COURSE OF CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE (COPD)</i> Atazhanova N.M Kamalov Z.S	11
<i>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ОСТЕОХОНДРОЗА ПОЗВОНОЧНИКА У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ С ПОМОЩЬЮ УДАРНО-ВОЛНОВОЙ И МАГНИТНОЙ ТЕРАПИИ</i> Камалова З.С Хамрабаева Ф.И	14
<i>USEFUL BOOKS FOR OIL AND GAS INDUSTRY TERMS IN ENGLISH FOR LANGUAGE LEARNERS</i> Erkinjonov Hurmatillo Izzatillo ugli Musaeva F.M	16
<i>UNDERSTANDING OF UZBEK LITERARY GENRES</i> Saparova Mohigul Ramazonovna	19
<i>MANAGEMENT AND IMPLEMENTATION OF TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES OF OUR COUNTRY</i> Bakayeva Mohira Ahrorovna	23
<i>РОЛЬ СКОТОВОДСТВА В НАРОДНЫХ ПОЭЗИЯХ КАРАКАЛПАКОВ</i> Жолдасбаева Саятхан Камалатдиновна	28
<i>TILDA AXLOQ NORMALARI YOXUD EVFEMIZMLARNING NUTQDAGI O'RN</i> Ruziyeva Nafisa Zarifovna	31
<i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORXONALAR AUDITI SOHASIDA AUDITORLARNI SERFIKATLASH TIZIMI VA XALQARO AUDITORLIK MALAKA SERTIFIKATLARI</i> Normurotova Sabrina Komil qizi	36
<i>ADABIY TIL</i> Abdiyeva Xurshida Mamasodiq qizi G'afforova E'zoza Utkir qizi	42
<i>DIPLOMATIK YOZISHMALARNING TURLARI</i> Navruzova Sora Abdumanob qizi Bobadustova Havas Ibrohim qizi	48
<i>HUJJAT TURLARI</i> Avazmurodova Dilnura Sayfullayevna Orziyeva Oydinoy Jahongirovna	54
<i>BO'LAJAK OFITSERLARIDA PROFESSIONALLIK KOMPETENSIYASINI</i>	61



TILDA AXLOQ NORMALARI YOXUD EVFEMIZMLARNING NUTQDAGI O'RN

Ruziyeva Nafisa Zarifovna

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. *Evfemizm hodisasi lingvistik birlik hisoblansa-da, aslida, u me'yor va baholash kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorning o'zaro ta'siri, shuningdek, evfemizmning ijtimoiy tabiati olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Evfemizmning eng muhim vazifalaridan biri so'zlovchilarni istalmagan hissiy portlashdan himoya qilishdir.*

Kalit so'zlar: *hissiy portlash, evfemizm, tabu so'zlar, til birligi*

Аннотация. *Хотя явление эвфемизма и считается языковой единицей, на самом деле оно тесно связано с такими понятиями, как норма и оценка. Взаимодействие социального и речевого поведения, а также социальная природа эвфемизмов признаны учеными. Одна из важнейших функций эвфемизмов – защита говорящего от нежелательных эмоциональных всплесков.*

Ключевые слова: *эмоциональный взрыв, эвфемизмы, табуированные слова, языковое единство*

Abstract. *Although the phenomenon of euphemism is considered a linguistic unit, in fact, it is closely related to such concepts as standard and assessment. The interaction of social and speech behavior, as well as the social nature of euphemism, have been recognized by scientists. One of the most important functions of euphemism is to protect speakers from unwanted emotional outbursts.*

Key words: *emotional outbursts, euphemisms, taboo words, linguistic unit*

Inson nutqi qanchalar go'zal bo'lmasin, qandaydir bir yomon, qo'pol yoki uyatli so'zlarni nozik shaklda ifoda etmasin, u tabulashtirilgan tushunchalarning salbiy mohiyatini, funksiyasini to'la yoritib bera olmaydi, inson xotirasidan yo'q qila olmaydi¹. Boshqacha aytganda, aytilishi uyatli, noxush, ko'ngilsiz bo'lgan so'zlar qanchalik tabulashmasin, ularning ma'nosi ostida yotgan qo'pollik, uyatsizlik tushunchasi balqib turaveradi. Masalan, *nomusiga tegmoq, zo'rlamoq, teginib qo'ymoq* evfemalari shu so'zlar ostida yotgan uyatli ma'noni va tushunchani xotiradan chiqara olmaydi. Bu jarayon esa yillar o'tishi bilan tilni yanada yumshoqlashtirish

¹ Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек нуткининг эвфемик асослари. –Т., 2000. –Б.56.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

uchun moyillikni keltirib chiqaraveradi, buni insonlarni muayyan axloq normalari boshqarishida kuzatish mumkin².

Yuqorida ta'kidlanganidek, evfemizmlar nutqni go'zallashtirish va yumshatish maqsadida qo'llaniladi hamda ular kimgadir qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular dialogik nutqda ko'proq qo'llaniladi. Umuman olganda, nutq mavzusi va holatini aniqlay olish bu kommunikativ kompetensiya bo'lib, dialogik nutqda evfemizmlarni mohirona qo'llash madaniy kompetentlik va nutqiy nazoratni amalga oshirishni anglatadi³.

M.L.Kovshova fikricha, "Evfemizmlar – til etiketiga rioya qiladigan insonning xulq-atvorini va suhbatdoshi bilan muloqot qilganda axloqiy me'yorlarga rioya etishini aks ettiruvchi til omili"dir. Masalan, *sovg'a qabul qilmoq, grease sb's palm* (принимать подарок) – *pora olmoq* ma'nosini ifoda etishda ishlatiladi⁴.

Mavzuga oid hozirgi zamon tadqiqotlari natijasida tabu va evfemalar kishilar o'rtasidagi aloqa vositasida voqelikni bayon etish, ya'ni uni ifodalashda ularning bir-biri bilan uzviy bog'langan uch qatlam mavjudligiga amin bo'lamiz. Ular: til, nutq va ekspressiv-emotsional nutq kabilardir. Nutq til jarayonining yuzaga chiqishi hisoblansa, evfemik qatlam esa nutqning rivojlanish yoki evolyusiyasi bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, tilda mavjud evfemizmlar evfemik nutq taraqqiyotining yangi shakllanish asoslarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Fikrimizni evfema qo'llashning etik-estetik talab me'yorlari xususida davom ettirsak, evfemik vositalarning shakllanishida jamiyat a'zolarining, jumladan, ziyolilar va ularning ma'naviy saviyasi, avvalo, axloq-odobi, ongliligi, fikrlash darajasi, didi va zavqi, kasbi, ijtimoiy holati, yoshi kabilar muhim ahamiyat kasb etishi ayon bo'ladi. Shu asosda evfemalarni uzual va okkazional turlarga bo'lish mumkin. M.L.Kovshova fikricha, uzual evfemalar shunday so'z va iboralarki, ular har safar nutqda yangidan yaratilmaydi, ular xotirada saqlanib, nutq jarayonida qayta-qayta qo'llaniladi⁵. Uzual evfemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) barcha nutq amaliyotlarida keng qo'llaniladigan sermahsul birliklar, masalan, *unemployed* so'zi o'rniga esa *between jobs* evfemizmini; *qari* so'zining o'rniga *oqsoqol, keksa, yoshi ulug'* kabi evfemizmlarni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi;

² Босчаева Н.Ц. Эвфемистичность в диалогической речи. –Л.:ЛГУ, №4, – С.79-81.

³Ковшова М. Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь эвфемизмов. –М.: Гнозис, 2007. –320 с.

⁴ Ковшова М. Л., Нистратов А. А. Критерии восприятия эвфемизмов: экспериментальное исследование языкового сознания // Жизнь языка в культуре и социуме. Материалы Международной научной конференции. –Москва, 26–27 мая 2017 г. / отв. ред. Е. Ф. Тарасов. –М.: Канцлер, 2017. –С. 329–332.

⁵ Ковшова М. Л. Курсатилган манба. 2017. –С. 329–332



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

2) ijtimoiy yoki hududiy belgilangan birliklar, ulardan foydalanish cheklangan, masalan, *farrosh* so'zi o'rniga *texnik xodim* evfemik vositasi qo'llaniladi. O'zbek mentalitetida *farrosh (ayol)* so'zlari o'rniga *opa, singlim* deb ham murojaat qilinadi.

Okkazional evfemizmlarga nazar tashlansa, M.A.Bakina ularni quyidagicha izohlaydi: 1) unumsiz so'z yasalishi bilan hosil bo'lgan va individual tilda tinglovchiga ilgari noma'lum bo'lgan so'zlar; 2) umumadabiy tilning so'z yasash modelidan qandaydir chetlashishni ko'rsatsa-da, tilda ma'lum bo'lmagan yangi so'zlar deb e'tirof etgan⁶. Masalan, *qamoq* so'zi o'rnida *panjara orti* kabi so'z birikmasini qo'llash aynan shu holatni ifoda etadi.

Tilshunoslik amaliyotida ham *evfemizm* tushunchasi turli xil tavsiflar bilan ta'riflangan bo'lib, N.S.Arapovanning ham evfemizmlar haqidagi fikrlarini quyidagicha keltiramiz: Evfemizmlar – tinglovchi uchun qo'pol yoki beandisha so'z va iboralar o'rnida qo'llaniluvchi hissiy jihatdan neytral so'z yoki iboralar bo'lib, ular ma'nosiga yaqin bo'lgan sinonimlar o'rnida qo'llaniluvchi vosita sifatida qo'llanadi⁷. Bizningcha, evfemizmlar neytral so'zlar emas, balki ular tilning leksik qatlamini boyitadigan, qo'pol va aytilishi uyatli so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi *pardalovchi, yumshatuvchi* vositalardir.

Zotan, evfemizm hodisasi XX asrdan boshlab soha sifatida (evfemiologiya) o'rganish obyektiga aylangan bo'lib, unga turlicha ta'riflar berilgan, har bir ta'rif, albatta, ushbu hodisaga bo'lgan munosabatni va ushbu hodisaning tildagi funksiyasini belgilab beradi. Evfemizmlar tilda so'zlovchi va tinglovchi uchun noxush bo'lgan tushuncha va so'zlarni "*yumshatish*", "*haqiqatni niqoblash*" kabi funksiyalarni bajaradi.

V.N.Yarseva muharrirligi ostida chop etilgan "Lingvistik ensiklopediya lug'ati" (Лингвистический энциклопедический словарь)da: "Evfemizm – bu so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar" deyiladi⁸. Evfemizmlarni qayta nomlash bilan bog'liq holatlarini esa N.M.Berdova⁹ tadqiq etgan bo'lib, u evfemizmlarni to'rt jhati bo'yicha tasniflaydi. Olima ularni lisoniy, psixologik, ijtimoiy, pragmatik jihatlarini o'rgangan. N.M.Potapova¹⁰ tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ayni jarayonning quyidagi belgi(mezon)larini ko'rsatadi:

⁶ Бакина М.А. Окказиональные слова мотивированные прилагательными поэзией//Слова в русской советской поэзии. –М., 1975. –164с.

⁷ Арпова, N. S. Euphemisms//Linguistic encyclopedic dictionary. –М.,1990. – С.128.

⁸ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.,1990. – 685 с.

⁹ Бердова Н.М. Эвфемизмы в современном немецком языке. автореф.дисс.. на соис. учен. степени канд.наук. – К., 1981. – 19 с.

¹⁰ Потапова Н.М. Эвфемизмы в языке и речи (на материале англоязычного дискурса): Автореф.дисс.. на соис. учен. степени канд.наук. – М., 2008. –19 с.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

- denotatning *stigmatikligi*; bunda stigmatiklik– salbiy bo'yoqdorlik ma'nosini anglatadi. "Stigma ta'sirida nafaqat predmetning antetsedentda aks etgan salbiy xususiyati, balki salbiy taassurot uyg'otish xususiyati ham kiradi");

- ijobiylik hissini namoyon etish;

- ifodaning asl mohiyatini saqlash, shular jumlasidandir.

Bu izohlarga qo'shimcha sifatida Y.P.Senechkina ham o'z izlanishlarida quyidagilarni ta'kidlaydi:

- evfemizm–denotat salbiy bo'yog'ini yumshatuvchi semantik noaniqlikni ifoda etishi;

- evfemizmlar denotatni ijobiylashtirishda gap qaysi predmet yoki hodisa haqida ekanligini ko'rsatish tabiatiga ega bo'ladi. Denotatning salbiy bo'yog'ini "*pardalash*", "*yumshatish*" xususiyati bo'lmagan ifodalarni evfemizmlar guruhiga qo'ymaydi¹¹. Fikrimizcha, evfemizmlarning asosiy vazifasi tilni ham tinglovchi va ham so'zlovchi uchun maqbul, etik-estetik jihatdan so'zlashuv odobiga moslashtirishdir. V.P.Moskvin "*Zamonaviy rus tili leksik tizimidagi evfemizmlar*" (Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка) asarida evfemizmlarning kategorial maqomi, evfemizatsiya usulining qo'llanilish sohalari, shuningdek, evfemizmlarning bir qancha yondosh hodisa (psevdoevfemiya, kriptologiya, ezop tili, dezinformatsiya, obrazli ifoda)lar bilan o'zaro munosabatini tadqiq qildi. Evfemizmlarning tematik va vaziyatga xos xususiyatlari, qo'llanishi, yasalishi, sinonimik ham leksik tizimdagi o'rne, lison va nutqqa munosabati, leksikografik tavsifiga oid ma'lumotlarni keltiradi¹².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arapova, N. S. Euphemisms//Linguistic encyclopedic dictionary. – M.,1990 . – C.128.
2. Бакина М.А. Окказиональные слова, мотивированные прилагательными поэзией//Слова в русской советской поэзии. –М., 1975. – 164с.
3. Бердова Н.М. Эвфемизмы в современном немецком языке. автореф.дисс.. на соис. учен. степени канд.наук. – К., 1981. – 19 с.
4. Босчаева Н.Ц. Эвфемистичность в диалогической речи. –Л.:ЛГУ, №4, – С.79-81.

¹¹ Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – Москва: Высшая школа, 2006. – 151с.

¹² Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка / . – М. : ЛЕНАНД, 2007.– 264 с.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

5. Ковшова М. Л., Нистратов А. А. Критерии восприятия эвфемизмов: экспериментальное исследование языкового сознания // Жизнь языка в культуре и социуме. Материалы еждународной научной конференции. – Москва, 26–27 мая 2017 г. / отв. ред. Е. Ф. Тарасов. –М.: Канцлер, 2017. –С. 329–332
6. Ковшова М. Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь эвфемизмов. –М.: Гнозис, 2007. –320 с.
7. Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка / . – М. : ЛЕНАНД, 2007.– 264 с.
8. Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. –Т., 2000. – Б.56.
9. Потапова Н.М. Эвфемизмы в языке и речи (на материале англоязычного дискурса): Автореф.дисс.. на соис. учен. степени канд.наук. – М., 2008. –19 с.
10. Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – Москва: Высшая школа, 2006. – 151с.
11. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.,1990. – 685 с.
12. Ruziyeva, N. (2022). Euphemisms as a means of manipulation in the language of the news media. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(10).
13. Zarifovna, Ruziyeva Nafisa. "A Bit of Honeyed Talk: Exploring Euphemisms for Spouses." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 3, no. 1 (2024): 443-445.
14. Zarifovna, R. N., & Alisherovna, A. Z. (2023). NONVERBAL EUPHEMISMS: UNDERSTANDING THE POWER OF BODY LANGUAGE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(29), 480-483.
15. Zarifovna, R. N., & Alisherovna, A. Z. (2023). APPLICATIONS OF SARCASTIC EUPHEMISMS IN MODERN LINGUISTICS. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(20), 247-250.
16. Ruziyeva, N. (2023). EVFEMIZM VA SINONIMIYA MUNOSABATI XUSUSIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10021
17. Ruziyeva, N. (2023). ЭВФЕМИЗМ ВА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР МУНОСАБАТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36).